

Language Change And Word Creation Processes In Social Networks

Komilova Zulhumor
Jo`rayeva Mohlaroyim
Fergana State University

Annotation

This work examines the hidden and overt influence of social networks on language development. New words, abbreviations, compound words, and expressions created on the basis of memes that appear in virtual communication are gaining a strong place not only in online conversations, but also in everyday oral speech. The study shows that social networks not only influence language, but also actively shape it, and the language habits of the new generation are further accelerating this process. The variability, adaptability, and ability of language to absorb new layers of meaning are analyzed as the main features of this process.

Keywords: Social networks, language change, new words, internet language, abbreviations and slang, meme linguistics, digital communication, language evolution.

Annotatsiya

Ushbu ishda ijtimoiy tarmoqlarning til taraqqiyotiga yashirin va ochiq ko`rinishda ko`rsatadigan ta`siri yoritiladi. Virtual muloqotda paydo bo`ladigan yangi so`zlar, qisqartmalar, aralash shakldagi birliklar hamda memlar asosida yaralgan iboralar nafaqat onlayn suhbatda, balki kundalik og`zaki nutqda ham mustahkam o`rin egallab bormoqda. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning tilga faqat ta`sir qilmasdan, balki uni faol ravishda shakllantirayotganini, yangi avlodning til odatlari esa ushbu jarayonni yanada tezlahtirayotganini ko`rsatadi. Tilning o`zgaruvchanligi, moslashuvchanligi va yangi ma`no qatlamlarini qabul qilish qobiliyati ushbu jarayonning asosiy xususiyati sifatida tahlil etiladi.

**Kalit so`zlar:** Ijtimoiy tarmoqlar, til o`zgarishi, yangi so`zlar, internet tili, qisqartmalar va slang, mem tilshunosligi, raqamli kommunikatsiya, til evolyutsiyasi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar insonlar o`rtasidagi asosiy muloqot maydoniga aylangan bo`lib, ularning tilga ko`rsatadigan ta`siri kun sayin ortib bormoqda. Ushbu jarayon tilshunoslikda ham muhim o`zgarishlarni yuzaga keltirib, tilning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta`sir ko`rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish natijasida yangi so`zlar, qisqartmalar, memlar, inglizcha-o`zbekcha aralash birliklar kirib kelmoqda. Natijada, yangi til unsurlari jamiyat nuqtasi madaniyatiga, fikrlash jarayoniga va kommunikatsiya usullariga sezilarli ta`sir ko`rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar tilning o`zgarishiga kuchli ta`sir ko`rsatib, yangi so`zlar, slang birliklar va qisqartmalning tez yaralishiga va ommalashishiga sabab bo`lmoqda. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Tiktok, Instagram va h.k.) odamlar orasida til vositasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayon global miqyosda ham kuzatilib, ko`plab yangi birliklar barcha foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar grammatikaga, imlo jarayoniga va muloqot uslubiga ham ta`sir ko`rsatib, qisqa va aniq yozishni hamda tillar aralashuvini kuchaytiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda emoji va memlar kabi vizual vositalarning keng qo`llanilishi mavjud so`z va iboralar yangi ma`nolar berilishiga hamda umumiy yangi til birliklari paydo bo`lishiga olib keldi.

Ijtimoiy tarmoqlar bu zamonaviy inson hayotining ajralmas bir bo`lagi. Bu orqali muloqot, fikr almashinuvi, axborotni uzatish, uni tarqatish va shu kabi ishlarni amalga oshirish mumkin. Odatda, internet tili soda, ta`sirchan hisoblanib, memlar, slanglar, emojilar kabi leksik yoki til birliklarini o`z ichiga oladi. Bunday sharoitda tilga bir nechta o`zgarishlar kirib kelishni boshlagan:

1. Yangi leksik birliklar paydo bo'lishi ya'ni like, story, subscribe, follow, repost, trend, reels blogger, youtuber kabi so'zlarni misol qila olamiz.

Bu orqali ijtimoiy tarmoqlarda tez va qulay muloqot qilishni istaganlar qisqartmalar ishlatishadi: OK-xo'p yki tushunarli ma'nosida. Shuningdek, emoji'lar yordamida ham muloqot qilish keng tarqalgan.

Memlar- bu internetda tez tarqaladigan go'ya, hazil, rasm, video yoki matn ko'rinishida bo'lib, odamlar odatda uni kulgili yoki biroz o'ylantiruvchi tarzda boshqalar bilan ham bo'lishishadi. Masalan: mashhur biror film sahnasi ustiga kulgili matn qo'yish yoki mushuk suratiga: "Men ishga borishni istamayman"-bu hazl bilan odamlar o'z holatini tasvirlaydi.

Internet slang esa- bu internetda tez va oson yozish uchun ishlatiladigan so'zlar yoki qisqartmalardir. Ular odatda inglizcha bo'ladi, lekin ma'nosi tez tushuniladi. Misol tariqasida: Lol-kulish, BRB-tezda qaytaman, OMG- Voy, Xudoyim va boshqalar. Bu hodisalar tilimizga yangi leksik birliklar sifatida kirib kelmoqda. Masalan: like bosdim, post qo'ydim, story joyladim kabi iboralar o'zbek tilida ishlatilayotgan zamonaviy iboralardir.

So'z yasash orqali yaratilgan yangi birliklar :to'lovchi (onlain to'lov tizimi foydalanuvchisi), trg'ibotchi, tarmoqdosh kabi so'zlar milliy so'z yasash usullari asosida yuzaga kelgan. Ular adabiy til mezonlariga yaqin va rasmiy nutqda ham qo'llanmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til muhitining ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat axborot almashinuvi, balki, til taraqqiyoti va leksik qatlamning yangilanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi leksik birliklar mem, emoji, qisqartmalar, inglizcha atamalar yoshlar orasida keng tarqalgan. Zamonaviy o'zbek tilida ham yangi so'zlar paydo bo'lishi tabiiy va doimiy jarayondir. Bu esa til yasovchanligi va rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq, yuqoridagi o'zgarishlar adabiy til me'yorlarini saqlab qolish va albatta, zamonaviy til hodisalarini ham ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Karimov A. (2020). Internet tili va xususiyatlari. Filologiya jurnali, 1-son

Qodirov Q. (2018). Zamonaviy o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi

Zokirova, S., & Xusanova, G. (2024). SOSIOLINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KONTEKSTIDA BOLALAR O'YINLARI TUSHUNCHASI. Farg'ona davlat universiteti, (3), 547-547.

Zaylobidinova, R. G. (2022). Comparative Study of the Names of Children's Games in Uzbek and English. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(8), 136-138.

Rasulov M. (2017). Zamonaviy o'zbek tili o'zgarishlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediya.

Jo'rayev, M. (2019). Til va jamiyat.

Mengaliyeva, M. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'zgarishi.

O. Yusufjonova. O'zbek tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 4(3), 87-95.

Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(1), 56-63.

Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. Education and science in the XXI century. 2 (38).

Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. Scientific and practical journal "Technique". Issue No.1.

Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

- Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.
- Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 234-237.
- Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.